

MAQOLLARDA - SOMATIK BIRLIKLAR

Navruzova Muyassar Gaybullayevna
Buxoro davlat universiteti Pedagogik
ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim
metodikasi kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7468096>

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqimiz yaratgan maqollarning mavzu jihatidan xilma-xilligi, rang-barangligi va boshqa xalq maqollaridan ajralib turishi haqida batafsil to'xtalib o'tilgan. Maqollar mazmun jihatdan chuqur bo'lishi bilan birga badiiy jihatdan ham mukammaldir. Maqollarning mavzuviy guruhlari ajratilgan. Tibbiy birliklarning o'zbek xalq maqollarida qo'llanilishi turli semantik guruhlar asosida shakllantirildi.

Kalit so'zlar: tibbiy birliklar, semalari, og'riq, anqov, pes, kasal, moxov, lisoniy mohiyat.

O'zbek xalqi purma'no so'zga, o'git-u naqlarga boy xalq sanaladi. Ajdodlarimiz azaldan o'zining hayotiy muammolarini – mehnat mashaqqati, g'am-anduhi, rohat-farog'ati, muvaffaqiyat va mag'lubiyati, rasm-rusumlari hamma-hammasini maqol va matallarda, naql va barqaror iboralarda ko'zgudagidek aks ettirib keladi. Bunday birikmalar tilda tayyor holatda bo'lib tilning jozibasini, ta'sirchanligini oshirishda xizmat qiladi.

Xalqning til boyligi – uning bo'yoqdor, serjilo leksikasining, frazeologiya qatlamining boyligi bilan ham o'lchanadi. O'zbek tili – ona tilimizning juda boy, ma'nodor, jozibali va rang-barangligi Navoiy zamonidayoq isbotlangan. Maqollar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribalari, doimiy kundalik kuzatishlar xulosasini tugal fikr tarzida qat'iy qutbiylikda ifodalar ekan, ularda har bir so'zning ma'no xilma-xilligi, iboralarning turg'unligi, shaklliy barqarorlik ustunlik qiladi. Grammatik jihatdan gap holida shakllangan, to'g'ri ma'noda qo'llaniladigan, xalq donishmandligi natijasida yuzaga keladigan barqaror birikmalar matallar sanaladi. Maqollar va matallar har ikkalasi ham xalqning hayotini uzoq davrlar mobaynida kuzatish orqali hosil qilgan hayotiy tajribasining ixcham shaklda ifoda topishidir.

Ushbu maqolamizda barqaror birliklarning tarkibiy qismini tashkil etuvchi somatik komponentli maqollar xususida so'z yuritamiz. Jahondagi ko'plab tillarda yaratilgan maqollarning asosiy qismini somatik komponentli maqollar tashkil qiladi. Somatik komponentli maqollarning tarkibidagi somatizmlar, ya'ni tana a'zolari nomlarini bildiruvchi so'zlar qatnashgan birliklardir. Somatik maqollarda har bir xalqning ko'p asrlik tajribasi, turmush tarzi, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlari va an'analari o'z aksini topgan bo'ladi.

Somatizm grekcha soʻzdan olingan boʻlib, "soma" - "tana" maʼnosini anglatadi. Jahondagi koʻpchilik tillar maqollarinig asosiy qismini somatik birliklar tashkil etadi. Oxirgi yillarda somatik birliklar ishtirok etgan maqollar turli xil tillarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning bosh mavzusi boʻlib kelmoqda. Somatik maqollarda har bir xalqning turmush tarzi, tajribasi, madaniyati, maʼnaviyati, urf-odatlar va anʼanalari oʻz aksini topgan boʻladi.

Oʻzbek maqollari mavzu jihatidan xilma-xil va rang-barangligi bilan boshqa xalq maqollaridan ajralib turadi. Xalqimiz yaratgan maqollar mazmun jihatdan chuqur boʻlishi bilan birga badiiy jihatdan ham mukammaldir. Maʼlum boʻladiki, xalqimiz yaratgan maqollar faqat mazmun jihatdan emas, badiiy jihatdan ham ajoyib soʻz sanʼati namunalari sifatida ishlatilishi mumkin. Asrlar davomida yaratilgan maqollarni toʻplab, maʼlum bir majmua sifatida ishlash talabi vujudga keldi. Agar olimlar tomonidan maqollar toʻplanib, maʼlum bir majmua holiga kelmaganida edi, ushbu mavzu boʻyicha qilayotgan ishimizning asosi ham boʻlmagan boʻlar edi. Maqollarning mavzu koʻlami juda keng boʻlib, turli soha mutaxasislari muloqotini qamrab oladi. Oldingi maqolalarimizda faqat bemor va shifokor muloqotida uchraydigan tibbiy birliklarni mavzuviiy guruhlarini tasnifladik. Ularni turlicha mavzuviiy guruhlariga boʻlish va shu asosida oʻrganish tadqiq qilinyotganligi haqida izohlar berdik. Ushbu maqolada ham inson tana aʼzolari ishtirok etgan maqollarga izoh berishimiz biz olib borayotgan tadqiqotimizni yanada oydinlashtirishga yordam beradi. Har bir millat madaniyatida somatik birliklar orqali ifodalanadigan maqollar majmui mavjud. Ular shu xalq dunyo qarashini, dinini, urf-odatini, yashash tarzi va tarixini oʻzida mujassamlashtiradi. Fikrimizni dalillashga harakat qilamiz. Maqollarni tahlilga tortamiz:

"Bosh" leksemasi ishtirok etgan maqol - Bosh omon boʻlsa doʻppi topilar. Insonning yaxshi, yorugʻ kunlarga, sogʻlik, tinchlik-xotirjamlik boʻlsa, yaxshi, yorugʻ kunlarga umidi, oʻzini taqdir ixtiyoriga topshirib tavakkal qilish maʼnolari ifodalangan. Bosh kiyim sifatida bu yerda qalpoq, shapka, shlyapa soʻzlari emas, doʻppi soʻzi keltirilgan. Maʼlumki, doʻppi oʻzbek xalqining milliy bosh kiyimi sanaladi. Shu oʻrinda lingvomadaniy birlik sifatida etalon vazifasini bajarib kelgan.

Boshini ikkita qilmoq. Oʻz maʼnosi yoʻq, koʻchma maʼnoda uylantirib boshini ikkita, oyogʻini toʻrtta qilmoq tushuniladi. Ola xurjunni (roʻzgʻor) yelkaga tshlamoq. Xalqimizda ikki yoshni nikohlab, bir yostiqqa bosh qoʻydirishni "Boshini ikkita qilish" iborasi bilan tariflanadi.

"Quloq" leksemasi ishtirok etgan maqol - Qulogʻini tishlab qoʻymoq. Bu iborali xalqimizga xos milliy urf-odat oʻz aksini topgan, yaʼni beshikketdi odati.

Hali beshikdagi qizchaga to'rt-besh yashar bolani "yor" qilib, "holva"ning qulog'ini tishlatish. Bu odat turk o'zbek xalqlarida qadimdan mavjud. "Qulog'i tishlab", deganda biror ish, masalala oldindan kelishib, hal qilib qo'yilgan ma'nosi anglashiladi. Ishni pishitib qo'ygan ma'noda.

Quloqqa azon aytmoq. Musilmonchilikda bola tug'ilib, kichik chillasi chiqqach, bir mulla chaqirib, uning qulog'iga azon aytiladi. Azon aytilganda bolaning qulog'i ochiladi. Bu iborada ham xalqimizga hos bo'lgan diniy aqida o'z ifodasini topgan.

"|Bo`yin" leksemasi ishtirok etgan maqol - Bo'yingdan akang. Bo'yingga qoqindiq, bo'yingdan o'rgilay, aylanay, tasadduq singari mehr-muhabbat, ishqibozlik, xush ko'rish, rag'bat iborasi ifodasidir. Bo'y - sarv qomat, go'zallik, sog'lom-baquvvatlik, kuch ramzi. Bo'y - oshiq mehr-oqibati timsoli. Xalq orasida bo'y insonning eng yaxshi fazilati - kamolot ramzi sifatida ulug'lib madh etiladi. "Bo'yingdan akang" oshiqning ma'shuqaga, yigitning qizga ishqibozlik, mehr ifodasi. Bu o'rinda uchinchi "aylansin" so'zi tushib qolgan bo'lsa-da, ma'nosi anglashilib turadi. "Baqabaqangdan akang" iborasi ham hayotsevrallik, gap tashlash, ishqibozlik ma'nolarida o'zaro sinonimlik hosil qiladi.

"|Tomoq" leksemasi ishtirok etgan maqol - Tomog'i tushdi. Bu iborada xalqimizning so'zning nozik ottenkalaridan foydalana olish mahoratini ko'rsatib bergan. Bu narsa biror narsaga, yegulik-ichgulikka ko'zi tushib, og'zi suv ochib, havasi kelsa-yu topib yeya olmasa, unda yetish olmay qolganda aytiladi. Ona, bolamning uzumga tomog' tushdi, deydi. Tomog'i tushish, ma'lum ne'matga yetisha olmay, tomoqning sun'iy ravishda tushib ketishi, so'lak oqishi kabilardir. Xotin-qizlarga nisbatan (homiladorlik) boshqorong'i bo'lish deb ham yuritiladi.

"|Yelka" leksemasi ishtirok etgan maqol -Yelkamning chuquri ko'rsin.Xalqimiz orasida keng tarqalgan bu iborada ham o'zbekona qarash, taomil o'z aksini topgan. O'ta norozilik, ozurda bo'lish, jonga tegib ketish, bezori bo'lish xulosasi. "Bu joylarni yelkamning chuquri ko'rsin",- deyilganda qayta bu joylarga kelmasligi tushuniladi. Yelkaning chuqurida (o'mrov suyagi) suv turmaydi. Unda suv saqlash amri mahol. Mening bu yerga kelishim, qasamimni buzishim ham xuddi shunday gap, degan qiyos qilinadi; yelka tutmoq. Bu ibora juda ko'p ma'nolarda qo'llanilib, o'zbek xalqiga xos bo'lgan eng go'zal odatlardan biri bo'lgan, salomlashish, ko'rishish ma'nosini ham tashiydi. Bunda ko'rishmoqchi bo'lgan katta yoshli ayollarga (jumladan, qaynonaga) engashib (yelkaga qoqishi uchun) yelka tutiladi. Bu odat kattaga hurmat, kamtarinlik, odob yuzasidan amalga oshiriladi

Yelkasi chopon ko'rmagan. Ko'chma ma'noda kambag'al, izzat-hurmat ko'rmagan, quda-andalik bo'lmagan, mehr-oqibat bilmagan mazmunini tashiydi.

Iborada tagi-zoti past, ko'rmaganning ko'rgani qursin degan takabburona naql mazmuni ham bor. Cho'pon esa xalqimizning milliy kiyimi sanaladi.

Yelkasiga shayton mindi. Insonning o'ng yelkasida rahmon, chap yelkasida shayton o'rnashgan bo'lib, uni yaxshilik va yomonlik sari undab, otlantirib turadi, deyishadi. Shayton – yovuzlik, yo'ldan ozdirish, yomonlikka boshlash timsoli; Yelkasiga shayton mindi, deganda o'zbeklar, binoyiday muomalada bo'lib turgandi, birdan fe'li aynidi, orqasi tutdi, shaytoni qo'zidi, endi yaqin o'rtada uni insofga, murosas-yu madoraga keltirish qiyin mazmunidagi fikrni anglashadi.

“**|Bel**” leksemasi ishtirok etgan maqol - Bel olishmoq. Kurash o'zbek xalqining ota-bobolardan qolgan asriy merosi sanaladi. Qadimda ota-bobolarimiz or-nomus uchun kurash tushganlar, bu oriyat masalasi sanalgan. Ana shu kurash jarayonidan “bel olishmoq” iborasi kelib chiqqan bo'lib, polvonlar davraga chiqsa, qo'l-bel olishib, kurashga kirishishadi. “Bel olishmoq”ning ko'chma ma'nosi ham bo'lib, ikki raqib tomonning bir-biri bilan ixtilofga, kurashga kirishishi, g'oyalar, mafkura, nazariyalar kurashi va hokazolar ko'zda tutiladi. Belida belbog'i bor. O'zbek odamning ishonchli, puturli, tayinli, diyonatligini bilmoqchi bo'lsa, belida belbog'i bormi, deydi. Belda belboqning bo'lishi – suyansa, ishonsa, qo'shilsa bo'ladigan odam mazmunini tashiydi. Bu ibora (belingda belbog'ing bormi?!) kishi hamiyatiga tegish, yigitmisan o'zi, qabilida raqibning jig'iga, g'ashiga tegish maqsadida ishlatiladi. O'zbek xalqida belida belbog'i borlik yigitlik, juvonmardlik, tayinli, subutli, diyonatlik garovi.

“**|Ichak**” leksemasi ishtirok etgan maqol - Ichagini boshiga salla qilmoq. Bu ibora haqorat, dag'dag'a, so'kish, mensimaslik bo'lib, ayrim chapani yigitlar bir-biriga dahanaki daf qilishganlarida ishlatib qoladilar. Ichagini salla qilish birovni chavaqlab, ichak-chavog'iniboshida ilish, uning joniga qasd qilishdir. Bu yerda salla so'zi bir tomondan ichakning uzunligiga ishora qilsa, ikkinchi tomondan milliy bosh kiyimimiz sifatida madaniyatimizni o'zida aks ettiradi.

“**|Qorin**” leksemasi ishtirok etgan maqol -Qorini yorsa, alif chiqmaydi // Alifni kaltak deydi. Alifni kaltak deydi iborasining muqobili. Alif – arab alifbosining birinchi bosh harf-tovushi, to'g'ri chiziq shaklida. Qorini yorsa, alif chiqmaydi, deganda bilimlar dunyosidan bexabar, xudo bexabar, hatto alifbening alifi ham yo'q boshida mazmuni ko'zda tutiladi. Ibora o'ta salbiy, tanqidiy, kinoyaviy ohang kasb etadi. Aynan alif so'zining tanlanishi esa tilimizning islomga yaqinligi, arab alifbosidan boxabar ekanligidan dalolat beradi. Bu ham, albatta, tilimizning o'ziga xos xususiyati sanaladi.

Qorni kajavaday. Bu o'xshatish ibora sanaladi. Qorinni kajava – ikki to'lqinli to'qima savatga o'xshatilyapti. Bu savat milliy boyligimiz sanalgan pillaning

kattalashtirilganini eslatadi. Bir tomoni ochiq, osti yopiq. Eshak, ot, tuyaga yuk joylab ortishga qulay. Qorin aslida kajavaday bo'lishi mumkin emas. Xalqimiz ochofat, tekintomoq, beg'am kishilarni kajava qorin, qorni kajavaday, deb masxaralab tanqid qiladi. Bu ibora, ayniqsa, mamlakatimizning janubiy viloyatlarida faol qo'llaniladi.

“|Oyoq” leksemasi ishtirok etgan maqol - Oyoq bosish. Bu ibora o'z va ko'chma ma'nolarda ishlatiladi. Oyoq bosmoq – sinib tuzalgan oyoqning ilk bor yerga bosish yoki go'dakning atakchechak bilan birinchi qadamlarini qo'yishi kabilarda o'z ma'nosida qo'llangan. Shuningdek, “Oyoq bosish” o'zbek xalq odati ham bor. Kelin-kuyov ilk bor chimildiqqa kirganda oyoq bosish odati amalga oshiriladi. Taomilga ko'ra kim kimning oyog'ini birinchi bo'lib bossa, qurilayotgan oila, ro'zg'orga o'sha bosh bo'ladi, deyishadi. Musulmonchilik – o'zbekchilikda yigit oilaga bosh bo'lishi tabiiy. Shuning uchun ham kelin nazokat bilan, kuyoviga oyoq bostirar ekan, so'ng irimiga o'zi ham beginning oyog'ini bosgan bo'ladi. Bu o'zbek xalqining noyob, milliy va qadimiy urf-odati sanaladi.

Oyoq uzatmoq. Iboraning bir nechta ma'nolari mavjud: oyoqni uzatmoq, cho'zmoq, chigilini yozmoq, dam olmoq kabi. Bu iboraning ko'chma ma'noda ifodalovchi insonning o'limi, hayotdan ko'z yumish ottenkalarida nozik so'z o'yini mavjud. Jumladan, Bobom oyog'ini uzatdi. Xalqimizga xos bunday iboralarni ko'plab uchratishimiz mumkin. Misol uchun, “Yo'qolib qoldi” iborasi ham mazmunan “Oyoq uzatmoq” bilan bir. “Buvim yo'qolib qoldi” yoki “Amakim yo'qoldi” kabi. Bu iboralar yurtimizning janubiy viloyatlarida faol qo'llaniladi.

1. Og'riqsiz bosh yer ostida kerak. Ushbu maqolda toki inson tirik ekan, unda ma'lum bir og'riqlar bo'lishi, tanasini azoblashi tabiiy holligi haqida fikr aytilgan. Inson vafot etgandagina dard -u og'riqlardan forig' bo'lishi haqida fikr aytilgan. 2. Og'riq-og'riq – ko'z og'rig'i, Har kimsaning o'z og'rig'i. Ushbu maqolda “og'riq” leksemasi “ko'z og'rig'iga” nisbatan ishlatilgan.”Har kim jonidan o'tganini o'zi biladi” qabilidagi fikr bayon etilgan. 3. Og'riq qayerda bo'lsa, jon o'sha yerda. Bu maqolda insonda dard, og'riq bor ekan, demak uning joni bor, demak u yashayapti, degan fikr aytilmoqda. 4. Og'riq tishning davosi – ombir.

Ushbu maqolda insonga eng ko'p azob beradigan dard – tish og'rig'i haqida munosabat bildirilgan. Har qanday kasalni davolash mumkin, ammo vaqtida davolanmagan tish og'rig'iga davo faqat ombir ekanligi aytilgan. 5. Og'riq ko'paysa, emchi ko'payar. Hayotda shunday insonlar borki, ular vaziyatga qarab o'z kasblarini o'zgartirishadi, o'z manfaatlaridan kelib chiqib ish qilishadi. Ushbu maqolda foyda evaziga mutaxassis bo'lmasa ham u singari tuzatishga harakat qiladigan insonlar keltirilgan. 6. Qattiq qishdan mol qolsa – o'lja, Qattiq og'riqdan jon qolsa – o'lja. Ushbu maqolda “qattiq og'riq” birikmasi “bedavo

dard” ma’nosida kelgan. Sizga kelgan og’irdardni yenga oldingizmi, joningiz omon qoldimi, demak siz katta o’ljani qo’lga kiritdingiz, bu sizning yutug’ingiz, deb aytilmoqda. 7. Og’riqsiz bosh bosh emas. Oh tortmasang, soch oqarmas.

Ushbu maqolda qarilik darakchisi hisoblangan soch oqarishiga faqat yillar zarbi sabab emas, balki bosh og’rigiga sababchi bo’ladigan turli omillar ham sabab ekanligi juda go’zal tarzda ifodalangan. “Dard” semasini birlashtiradigan o’zbek xalq maqollari: 1. Toza havo – dardga davo Har kuni o’z ustida ishlash, badantarbiya qilish, toza havodan nafas olish har bir insonning salomatligi garovidir. Ushbu maqolda ham toza havodan nafas olish turli dardlarga davoligi aytilgan. 2. Asrayman desa balo yo’q, O’laman desa – davo.

Dardni ham, davosini ham Olloh beradi. Har kim peshanasidagini ko’radi. Taqdirimizga bari yozilgan. Ushbu maqolda ham shu falsafa aks etgan holda ba’zi kasalliklarga o’lim davo, degan tushuncha ham singdirilgan. “Anqov” semasi qatnashgan xalq maqollari tahlili Kasalga davo topilsa ham, Anqovga davo topilmas.

Xalqimizda Olloh bergan har qanday kasallikka davo topish mumkin, ammo farosatdan qisgan bo’lsa bedavo, degan gap ham mavjud. Odamlar orasida shunday insonlar borki, uarga qancha tarbiya bersang ham, gap uqtirsang ham befoyda, baribir yuzingga angrayib ne qilishini bilmay qarab turishadi. Ushbu maqol shu kabi kimsalarga atab aytilgan.

Anqov o’yin buzar, Tentak – uyin.

Hech narsani tushunmay “qovun” tushuradigan insonlar yaxshigina ketayotgan o’yinni buzishlari, tentak esa axmoqligidan uyini ham buzib yuborishi mumkinligi ushbu maqolda aks etgan.

Yer yuzini baxmal olsa ham, Anqovga taqiyalik tegmas.

Anqov, tentak kabi insonlar oldida turgan bir dunyo imkoniyatlardan ham foydalana olmaydi. Go’yoki, yer yuzini baxmal olsa ham u kabi insonlar tangadek joyni ololmasligi kabi. Ushbu maqolda sergak bo’l, imkoniyatlardan foydalan, anqovga o’xshab qolma, degan fikr yoritilgan. Yolg’onga yo yalqov inonar, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti

Xalqimizda “yolg’onga bola ishonadi”, “aldagani bola yaxshi” kabi iboralar mavjud. Yana shunday toifadagi insonlar borki, ularni aldash oson. Ular anqov va tentaklardir. Maqolda ehtiyotkor bo’lish lozimligi, har narsaga ishonish kerak emasligi aytilgan. “Pes” leksemasi qatnashgan xalq maqollari Pes pes bilan qorong’uda topishar Ushbu maqolda “Ko’r ko’rni qorong’uda topadi” degan mazmun bor. Har kim o’ziga mos odam bilan do’stlashadi, Ularning nafaqat dunyoqarashlari, balki ko’rinishlari ham bir xillik kasb etishi haqida so’z boradi. Pes pesni topar, Suv – pastni Ushbu maqolda ham yuqoridgi fikr o’z ifodasini

topgan. “Moxov” kasalligi nomi qatnashgan xalq maqollari Pesning chekiga moxov tushibdi Ushbu maqolda har kim o‘ziga o‘xshagan inson bilan do‘st tutinadi, u bilan munosabatga kirishishni hayotning o‘zi taqozo etadi, degan fikr o‘z ifodasini topgan. Moxov qoshdan gapirar, Mechkay oshdan gapirar Har bir inson bu dunyoni o‘z qarichi bilan o‘lchaydi. Tabiiyki, u aytayotgan fikrda ham uning tafakkuru aks etadi. Yuqoridagi maqolda shu fikr aks etgan. “Kasal” semasi qatnashgan o‘zbek xalq maqollari Kasal jonning harakatida, Tabib pulning harakatida.

Ushbu maqolda ba’zi tabiblar haqida tanqidiy fikr bildirilgan. Bemor odam jonini asrash uchun har qanday ishga tayyor bo‘lsa, ba’zi tabiblar bemorlardan pulni olish maqsadida har ishga tayyor bo‘ladi. Ular uchun iqtisodiy manfaat birinch o‘rinda turadi. Kasal dardini sog‘ bilmas, Och qadrini to‘q bilmas. Tirik jon bor ekan uning isitmasi ham bor. O‘sha holatga tushgan bemorning ahvolini, hissiyotlarini u kabi holatda bo‘lmagan inson tushunmaydi. Ushbu maqolda aynan shu fikr o‘z ifodasini topgan.

Kasalga so‘z yoqmas, Kambag‘alga – o‘yin Dardga chalingan insonning nafaqat ishtahasi, balki kayfiyati ham bo‘lmaydi. Dardga chalingan inson uchun har qanday so‘z ortiqchadek tuyilaveradi. Ushbu maqolda shu haqda gap ketadi. Kasal – oshdan, Davo – qarindoshdan.

Inson biror bir dardga chalinganda bir og‘iz shirin so‘zga, yoqimli kalonga zor bo‘ladi. Shunday vaqtlarda qarindoshlarning siylayi rahm ko‘rsatishi joningizga oro kiradi. Mazkur maqolda aynan shu g‘oya o‘z ifodasini topgan. Bunday tibbiy birliklar qo‘llanilgan maqollarning guruhlarini yanada davom ettirishimiz mumkin. Maqollar tilning ko‘rki hisoblanadi. Ulardagi ixcham hajm va ma‘no xalq ma‘naviyati, zakovati mahsulidir. Maqollardan nutqda foydalanish mazmunni boyitishga, ta’sirchanlikni oshirishga va shuning barobarida tilning ko‘rkamligini namoyon etishga olib keladi, nutqning xalq tiliga yaqin bo‘lishini ta’minlaydi. Maqol matni qisqa, ixcham va lo‘nda fikrlash, aniq bayon etishni taqozo etgani bois ijodkorga qo‘l keladi. Maqol matni mazmun jihatdan tahlil etilmaydi, chunki maqollar, odatda, to‘g‘riligi isbotlangan holda, qayta-qayta ishlanib vujudga keladi. Maqollar asosan ifoda nutqning rang-barangligini, ta’sirchanligini, badiiyligini ta’minlovchi uslubiy vositalardan biri hisoblanadi. Tibbiy birliklar qo‘llanilgan maqollarni mumkin qadar o‘rganish va tadqiq etish til va nutq uchun xarakterli bo‘lib, shu orqali o‘zbek tilining lug‘at tarkibi boyib boradi. Bunday mazmundagi maqollarga muloqot jarayonida ko‘proq murojaat qilish, ayni paytda kishilarning nutq odobi va muomala madaniyati yuksalaveradi. O‘zbek tilshunosligida ushbu uslubiy vositaning lisoniy

mohiyatini ochib beruvchi maxsus ish yuzaga kelgan emas. Mavjud ma'lumotlar esa ilmiy jamoat ahlini qondirish darajasida emas.

Bunday tibbiy birliklar qo'llanilgan maqollarning guruhlarini yanada davom ettirishimiz mumkin. Maqollar tilning ko'rki hisoblanadi. Ulardagi ixcham hajm va ma'no xalq ma'naviyati, zakovati mahsulidir. Maqollardan nutqda foydalanish mazmunni boyitishga, ta'sirchanlikni oshirishga va shuning barobarida tilning ko'rkamligini namoyon etishga olib keladi, nutqning xalq tiliga yaqin bo'lishini ta'minlaydi. Bunday mazmundagi maqollarga muloqot jarayonida ko'proq murojaat qilish, ayni paytda kishilarning nutq odobi va muomala madaniyati yuksalaveradi. O'zbek tilshunosligida ushbu uslubiy vositaning lisoniy mohiyatini ochib beruvchi maxsus ish yuzaga kelgan emas. Mavjud ma'lumotlar esa ilmiy jamoat ahlini qondirish darajasida emas.

Albatta, xalqimizda odob-axloqqa, yaxshilikka undovchi bu kabi iboralar ko'plab uchraydi. Xalq bu kabi til birliklarida ham farzandlarni tarbiyaga, kamolotga undaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi" // 2019- yil, 21- oktyabr //

Агаджанян С.А. Вербальная коммуникация «врач – пациент» в функционально-стилистическом аспекте (на материале английского языка) // дисс...канд... наук. – Москва // 2018. – 177 с.

3. Omonturdiyev A. Professional nutqevfemikasi. – Toshkent: Fan, 2006. – 232 b.

4. Ernazarov T. Shifokordeontologiyasivatibbiyaxloq.// – Toshkent: Fan // 2005. – 118

5. Hojiev A. Tilshunoslikterminlariningizohlilug'ati. – Toshkent: O'zME, 2002. 164 b

6. Gaybullaevna, N. M. (2021). LINGUCULTUROLOGICAL PROPERTIES OF MEDICAL UNITS OF UZBEK LANGUAGE. Journal of Contemporary Issues in Business & Government, 27(4).

7. Gaybullaevna, N. M. (2021). Fundamentals of medical termsformation in uzbek language. Middle European Scientific Bulletin, 12, 488-491.

8. Navruzova, M. G. (2021). Lexical-semantic features of some medical linguistic units. Scientific reports of Bukhara State University, 5(2), 135-142.

9. Gaybullaevna, N. M. Etymology of Uzbek Medical Terms. JournalNX, 7(06), 169-171.

10.Navrozova, M. G. (2021). XALQONA TIBBIY BIRLIKLARDA MANO KOCHISH
USULLARI. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1),
1487-1491.